

## МАКТАБЛАРДА INKLUYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Yusufjonova Xonzodabegim Davlatbek qizi

ADCHTI , 105-guruh talabasi

Yaqubjonova Ro'zixon Mirkomil qizi

ADCHTI, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi

TEL.:+99899-321-80-11

E-mail: [xonzodabegimyusufjonova8@gmail.com](mailto:xonzodabegimyusufjonova8@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limga hamda uni maktab tizimida tashkil etishga qaratilgan masalalarga bag'ishlanadi . Barcha o'quvchilar o'z imkoniyatlariga ko'ra ta'lim olishlari mumkin.

**Kalit so'zlar.** Inklyuziv ta'lim , ta'lim tizimi , jamiyat

**Абстракт.** Данная статья посвящена инклюзивному образованию и проблемам, связанным с его организацией в системе школу. Все студенты должны иметь возможность получать образование в соответствии со своими способностями.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, система образования, общество.

**Abstract.** This article is dedicated to inclusive education and the issues related to its implementation in the school. All students should have the opportunity to learn according to their abilities.

**Keywords:** *inclusive education, education system, society.*

Inklyuziv ta'lim – bu hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi . Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak .O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'iy nazar barcha bolalar umumta'lim maktablariga qatnaydi .Barchamizga ma'lumki, bu mustaqil davlatimiz tomonidan kafolatlangan .Shuni ta'kidlash joizki, respublikamizda

imkoniyati cheklangan bolalarga mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagи mакtab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim oladi. Hozirda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda.

**Inklyuziv ta’lim jarayonida alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar**

sog‘lom bolalar bilan birga bir maktabda, sinfda o‘qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar mакtabga qadam qo‘ygan kunlaridan boshlab alohida qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladilar. Bunday qo‘llab-quvvatlash ularning butun

hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Inklyuziv talim barcha o‘quvchilarning ta’lim olishi uchun samarali yo‘l deb o‘ylayman . Bu tizim o‘quvchilar bir-birlari bilan sog‘lom munosabatda bo‘lishida , tengdoshlarini hurmat qilib , psixika va sog‘lik jihatdan orqada qolayotgan bolalar bilan sog‘lom bolalar kabi munosabatda bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarni sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qitishni anglatadi. Inklyuziv ta’lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

1. Inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog‘liq emasligi prinsipi
2. Har bir shaxsning his qilish va o‘ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
3. Har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
4. Har bir o‘quvchining o‘z tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlovi va do‘stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi kabilar.

O‘zbekiston miqyosida inklyuziv ta’limning huquqiy asoslari:

1. “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (1991-yil)

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil)
3. “Ta’lim to‘g’risidagi”Qonun (2020-yil)
4. “Ta’lim hamma uchun”Milliy dastur rejasi (2003-yil)
5. “Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smyrlar uchun inklyuziv ta’lim muvaqqat Nizomi” (2005-yil)
6. “Ijtimoiy himoya yili”Davlat dasturi (2007-yil)
7. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni(2008-yil) .

O‘zbekiston Respublikasi “Talim to‘g’risida”gi qonunning 4-moddasida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘ylmasligi hamda ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’milanishi,qonunning 9-moddasida esa “Jismoniy,aqliy,sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar,shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassalarida,umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim oladi”deb ko‘rsatib o‘tilgani inklyuziv ta’limning naqadar muhim ekanligini bilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi qaroriga muvofiq “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qonuni ishlab chiqilgan. 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish,alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifati bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi;

- alovida ta’limga muhtoj bolalar o‘qiydigan ta’lim muassalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish,ta’lim muassalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari,panduslar,panjara va boshqalar),shuningdek , tegishli

xodimlar bilan ta'minlash (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxasislar);

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

2020 — 2022-yillar davomida:

- a) inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;
- b) inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorланади, qayta tayyorланади va malakasi oshiriladi;
- c) inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi;
- d) inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;
- e) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijtimoiy muhit shakllantiriladi;
- f) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

g) inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi.

2023 — 2025-yillar davomida:

- a) inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilinadi;
- b) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda , ushbu ta’lim tizimi jamiyatimizga juda ham keraklidir . Ya’ni bu nogironligi bo‘lgan bolalarni insonlar orasida qadr-qiyomat topishida muhim rol o‘ynaydi . Shuni ta’kidlash joizki, har bir inson jamiyatda o‘z o‘rnini topishga haqli . Zero,konstitutsiyamizda ko‘rsatib qo‘ yilganidek , Yangi O‘zbekistonda har kim dini , irqi , ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar teng huquqlidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. lex.uz sayti
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sod Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi qaroriga muvofiq “Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi “Talim to‘g‘risida”gi qonuni